

QIZ BOLA – OILA VA YURT SHA'NI

Termiz Davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti tillarni o'qitish fransuz tili 123-gruh talabasi

Toshboltayeva Zebiniso

Bu foniy dunyoda eng muqaddas inson bu ota –ona.

Ota-onal farzandlari uchun hamma narsaga tayyor bo'l shadi .Farzandlariga yaxshi ta'lim tarbiya berishadi.Kelajakda farzandlar el-yurt uchun yaxshi inson bo'lsa,bu ularning baxti.Ayniqsa, oilada qiz bola ajralib turadi.Qiz bola o'zining odobi, yurish-turishi,munosabati bilan oilaning bir ko'rki hisoblanadi.

Umuman olganda, qiz farzandimiz dunyoga kelgan kundan boshlab uni har tomonlama yetuk,komila etib tarbiyalashga va sog'gom bo'lib voyaga yetishiga jiddiy e'tibor qaratamiz.Dunyo go'zallari qaddu-qomati,tiniq yuziyu va sunga o'xshagan diqqatni tortadigan tashqi chiroyi bilan latofatli sanalsada, bunday sifatlar ikkinchi darajali hisoblanadi.Albatta, birinchi o'rinda qiz bolaning odob-axloqi, ibo-hayo va ozodaligikabi zebo xislatlarni mujassam etgan fe'l atvori bilan to'kis husnga ega hisoblanadi.O'tmish hayotidagi avlodlarimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'z oldimizga To'maris,Zebiniso,Oybarchin, Uvaysiy,Nodira,Qutluqnigorxonim,Zulfiya kabi ayollarimiz borki mardligi,shiddatkorligi,aqliligi,sadoqatligi,sabrliligi bilan birga ibo-hayosi bilan o'rnak bo'ladi.

O'zbekona qarashlarda qadimdan qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaraladi.O'zbekchilikda qizlarning yurish-turishi,gap-so'zi,o'zining tutishi,epchil-chaqonligi u ko'zga ko'ringan paytdan boshlab odamlarning og'ziga tushadi.Elimizda qiz bolaning chiroyidan ko'ra uning husni xulqi epchil,chaqqon, pazanda-yu chevarligiga katta ahamiyat berishadi.Shundan qiz bola tug'ilgandan unga muomila madaniyati,kiyinish madaniyati ,ozodalik,oilada odob-axloq qoidalari qa'tiy o'rgatila boshlaydi.Har bir qiz-ana shu oilaning yuzi deb baho beriladi.

Oilada qizning tarbiyasi judda nozik. Bu tarbiyada ona katta rol o'ynaydi.Bekorga xalqimiz "Onasini ko'rib, qizini ol"-degan iborani ishlatishmaydi.Bu gapda chuqur ma'no mujassam.Qiz bola yoshligidan onasidan o'rnak oladi.Voldasining yurish-turishi-yu atrofdagilarga munosabati, hunarmandligiga qarab qiyos oladi va bularni o'zida tatbiq etishga harakat qila boshlaydi.

Keying paytlarda qiz bola tarbiyasida nuqsonlar uchrab turibdi.Bularni bartaraf etish uchun ota-onas zimmasiga katta ma'suliyatlar yuklangan.Hozirgi kunda bu muammo sabab turmush ostonasiga endi qadam qo'yayotgan qizlarimiz turmushning og'ir-yengiliga bardosh berolmay,ayniqsa,qaynona- kelin munosabatlariga chidolmasligi,sabrsizligi tufayli guldek oilasi buzilishlarga olib kelyapti.Buni zamirada qizlarning erta turmushga chiqishi,oilada erka bulib ma'suliyat sezmay o'sish va shunga o'xshash sabablar orqali ajrimlar ko'paymoqda.

Qiz bola bir o'zbek xonadonida katta bo'larkan oiladagi muhit unga har tomonlama katta ta'sir o'tkazadi.Oilada ota va qiz o'rtasidagi munosabat judda ham o'zgacha.Oila boshlig'i bo'lmish otadan qiz bola haymiqib iymanib turadi.Ba'zi qizlar oddiy narsani so'rash, gapirish uchun ham buni onasi orqali yetkazadi/ayrim oila qizlari esa dadasing erkasi otasi bilan bemalol gaplasha olishadi.Oiladagi har xil mihit orqali qizlarda ijobiy va salbiy hislatlar vujudga keladi.Onalar uzining jigargo'shalariga hayotning past-balandini qiyinchiliklarga sabr qilish kerakligini uqtirishi kerak.

Borgan joyingda tosh kabi qot, tup qo'yib palak yoz,degan iboralarni tez-tez eshitamiz.Bu ham ro'zg'or yuritish, uy tutishdek oila ishlarida sabr-toqat va vazminlikning ahamiyati muhimligiga ishora.Zero,o'zbek xalq og'zakijodida tosh ramzi og'ir-bosiqlikni,bardoshlilikni ifodalaydi.

Buvilar, onalar, qizlar....Bu uch avlod o'rtasida mutanosib ravishda rivojlangan tarbiya asosida qadriyatlarga katta ahamiyat qaratiladi.Erta bir kun uyimni tark etadi deb onalar jigargo'shalarini ayashib ish buyirishga ko'zları qiymasliklari mumkin.Lekin hayotning achchiq-chichugini totgan, yaxshi-yomonni farqiga brogan buvillar talabchanlik bilan qizlarni ishga mehnatga puxta bajarish orqali o'rgatadi.

Qiz bolaning sha'ni.....

Darhaqiqat, bu gap aytilyotganda yoki eshitib qolsak bu so'zga alohida urg'u berib gapiriladi.Bu so'zni eshitar ekanmiz chuqur o'nga cho'mamiz va beihtiyor ko'z o'ngimizga opamiz singlimiz keladi.Insonlar orasida ma'naviy qadriyatlar, insoniy fazilatlar haqida gap ketganda , ayni shular qiz bolada oliy daraja bo'lishi talab qilinadi.Qiz bolaning nomiga ilashgan yomon dog' yoki isnodning ketishi judda qiyindir.Oddiy bir ertalab choy bilan ichadigan oq qandga zarragina dog' tegsa uni ketkazish judda mushkul.Qiz bola sha'ni ham shunaqa.Ozgina teggan gard ham oqilalar uchun butun hayoti davomida qolishi mumkin.Bu baxti butun emas, baxti kemtiklikka solib qo'yadi.Bularga sabab shuki o'ylamay ish

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 2, Fevral 2024

qilishlilik, irodaszlilik kabilarni aytishimiz mumkin.Ayb yoki gunoh ish qilib qo'ygan hamma inson ham kechirilishi mumkin.Lekin qizning nomusidan gap ketgan ayb ishda emas.Qiz bola nafaqat ota-onasi balki, butun bir jamiyat, vatan g'ururi va ori hisoblanadi.

Dol bo'lган qadlar, egilgan boshlar bu judda og'ir narsa." Qiz bola keltirgan nomus-o'limdan kuchli!".

Asrlar, zamonlar osha bu kabi gaplar o'chirilmaydi,tig'ini ham o'tmaslashtira olmaydi.Bizning o'zbek xonardonlarimizda qiz o'sayotgan bo'lsa,shu xonodon sohiblarining ko'nglida g'urur, surur, shukur va qiz sha'ni bilan bog'liq bo'lган or-nomus ham yuqori darajada bo'ladi.

O'zbek xalqi qiz bolaning ma'naviy yetuk komil inson bo'lib o'sishi uchun alohida ahamiyat beradi.hozirgi kunda davlatimiz xotin-qizlar uchun judda katta imkoniyatlar sharoitlar yaratilmoqda.

Bugun O'zbekiston ayollari har bir jabhada o'z o'rniga ega bo'lib borayotganini barchamiz bevosita amalda ko'rib turibmi.Xotin-qizlarni,ijtimoiy-siyosiy faoligini oshirish,ularni qo'llab-quvvatlashga doir judda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.Birgina ta'lim tizimida ayollarga berilayotgan imkoniyatni ko'rishimiz mumkin.Xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kengaytirish maqsadida davlat grandlari tashkil etilishi va ularni ikki barobarga oshirilishi bunga yaqol misol.

Bizning mamlakatimiz O'zbekiston respublikasining asosiy qomusi hisoblanmish Konstitutsiyada belgilab o'tilgan.Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir.O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi 46-modda.Hozirgi kunda ulg'ayotgan qizlarni o'qitish unlarning ham jamiyatga o'z nafi tegishi kerakligi ko'p bor aytilmoqda.

O'zbek jamoaytida ayolning aziz-u mukarramligi va uni qadrlash kerakligi haqida ko'p gapiriladi.Katta-katta minbarlarda xotin-qizlar sha'niga she'rlar aytiladi,alqovlar o'qiladi.Ammo amalda bu har doim ham o'z tasdig'ini topavermaydi.

Aksariyat oilalarda negadir qiz farzandlarning istaklari tugul, ilm olishi-yu, o'lari xohlagan kasb-hunar egasi bo'lishiga cheklovlar qo'yiladi.Oila a'zolari tomonidan orzulari saralanib, kezi kelsa, keying taqdiri ham tanlab beriladi.Shu tariqa jamiyatimizda o'ziga nisbatan ishonchi,bahosi past,maqsadsiz,haqqini va haddini bilmaydigan qizlar voyaga yetaveradi.Bu esa o'sha inson uchun ham jamiyat uchun ham zarar beradi.

Qiz yo'q uyda sarm-sabo esmaydi,

Qiz yo'q uyda jambl-rayhon o'smaydi.

O'g'illarning ota bilan ishi yo'q,
Qiz otasin har qadamda eslaydi.

Bahor gullari kabi ochilib yuruvchi,latofatli bizning o'zbek qizlari! O'zbek xonodonlarimizda lobar, latofatli qizlarimiz borki,hech bir joydan g'ubor topa olmaysz.O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf qalamiga mansub yuqoridagi she'rimizda ham shoir aynan shunu nazarda tutadi.Hovlilarga kirganingizdan bahri dilingiz ochiladi.Kirishingiz bilanoq ko'zingizga rayhonlar-u turli xil gular hidi dimog'ingizga yoqadi.Bilasizki, bu uyda qiz yoki ayol kishi bor.

Ko'pincha o'g'il bolalar ota onasiga qizlaraga nisbatan mehri e'tibori kam bo'ladi.Qizlar ko'proq oilada otalarini yaxshi ko'rishadi.Otalarini har qadamda esga oladilar, qidiradilar.Shu asnoda qiz bolaning otaga nisbatan mehri o'zgacha bo'ladi.Otasining boshini egishni hohlashmaydilar.Chunki qiz bola otaning – g'ururi!

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, qiz farzand nafaqat oila sha'nini balki butun jamiyat orini ko'tarib yurishi kerak.Hozirgi zamonaviy dunyoda ayrim qizlarimizning ma'naviy tomonda qaloq bo'layotganligi, o'zining qiz bola ekanligini unutib quyayotganligini yaqol ko'rib guvoh bo'lyapmiz.Internet degan oqimiga kirib ketishlik, jamiyatdan hayotdan orqada qolib ketayotgan yosh qizlarimiz yo'q emas bor.Buni oldini olish kerak.Eng avvalo bu oiladan boshlanishi va bu harakatda birinchi o'rinda ota-onha katta rol o'ynaydi. Davlatimiz rahbari qizlar uchun qizlarning o'qib bilim olishligi uchun yaratib berayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishimiz kerak!

Nazarimda, qizlarning hayotga bo'lган motivatsiyasi bolaligidan boshlanadi.Qiz uchun eng katta avtoritet bu – uning otasi.Qizlarga o'zligini, o'z hissiyotlarini tanishni o'rgatish kerak.Qiz bolani o'zi hohlamagan narsaga majburlash kerak emas.

Qizlarni o'qitish kerak! Ular shaxs sifatida shakllanganidan keyingina turmushga berish kerak.Chunki turmush qurdi degani hayoti yaxshi bo'lishiga kafolat emas, ertaga nima bo'lishini hech kim bilmaydi.Hammasi yaxshi bo'lishiga ishinganimizda ham, oila qurayotgan qiz mustaqil va shakllangan shaxs bo'lishiga e'tibor qilish kerak.Chunki u ertaga ona degan nomga musharraf buladi.Jamiyatga yosh avlod tarbiyalaydi.Ona o'qimishli bo'lsa,farzand ham kelajakda yetuk, yurt uchun foydasi tegadigan bo'lib ulg'ayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbek tilining izohli lug'ati (2006-2008)

O'zbekiston Respublikasi yangi konstitutsiyasi 2024-yil.